



**KLINIK LABORATOR  
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA  
YECHIMLAR**  
**xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman**  
**18 aprel 2023 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi**

**WWW.SSV.UZ**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi WWW.TMA.UZ**

**Mazkur to‘plamda Toshkent tibbiyot akademiyasining “Klinik laborator diagnostikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, muammolar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.**

**To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifatiga muallif(lar) javobgar hisoblanadi.**



**Toshkent – 2023**

### **Tahrir hay'ati**

Shadmanov Alisher Kayumovich	Rektor, Tashkiliy qo'mita raisi
Bobomuratov Turdiqul Akramovich	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor
Boymuratov Shuxrat Abdujalilovich	O'quv ishlari bo'yicha prorektor
Maruf Sakirovich Karimov	Davolash ishlari bo'yicha prorektor
Azizova Feruza Lyutpillaeva	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
Saidov Alonur Baxtinurovich	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası mudiri
Babadjanova Shaira Agzamovna	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası professori
Kurbonova Zumrad Chutbayevna	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası dotsenti
Sayfutdinova Zuhra Abdurashidovna	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası katta o'qituvchisi

### **Moderatorlar**

Kurbonova Zumrad Chutbayevna	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası dotsenti
Sayfutdinova Zuhra Abdurashidovna	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası katta o'qituvchisi

9. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Laboratory work: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

10. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Лаборатория иши: ўқув қўлланма. 2023, 150 б.

**MIGREN BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA BOSH MIYA  
O'ZGARISHLARINI MAGNIT REZONANS TOMOGRAFIYA  
TEKSHIRUVI ORQALI BAXOLASH  
Po'latov M.Q., Rashidova N.S.  
Toshkent tibbiyot akademiyasi**

**Dolzarbligi.** Migren takrorlanuvchi o'rta darajadan kuchli darajagacha bo'lgan bosh og'riqlari bilan xarakterlanadigan va ko'pincha ko'ngil aynish, qayt qilish, fotofobiya, fonofobiya kabi simptomlar bilan birga kechadigan surunkali nevrologik kasallik. U eng keng tarqalgan nevrologik buzilishlardan biri bo'lib, umumiy aholi sonining 12,6 % (6% erkaklar, 18% ayollar) gacha qismida kuzatiladi va aholi qatlamining ish unumdorligini pasaytirish xisobiga milyardlab miqdorda jamiyatga zarar keltiradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lum qilishicha, migren dunyo bo'ylab eng ko'p nogironlikka sabab bo'luvchi 20 kasallikdan biri. Uning tarqalishi balog'at yoshida oshadi va 35-39 yoshgacha o'sishda davom etadi. Bu ma'lumotlarga tayangan holda bosh miya o'zgarishlarni erta aniqlash migren asoratlanishi sababli yuzaga keladigan nogironliklarni oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi.** Migren bilan kasallangan bemorlarda bosh miya o'zgarishlarini MRT tekshiruvini orqali baxolash va asoratlanishining o'ziga xosligini baxolash.

**Tadqiqotning materiallari va usullari.** Toshkent shahridagi Shox international hospital xususiy klinikasida nevropatolog qabulida bo'lgan 16 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan Migren bilan kasallangan 18 nafar bemorda (2 nafar erkak, 16 nafar ayol) bosh miya o'zgarishlar taxlil qilindi. Ushbu tadqiqot uchun instrumental tadqiqot usullaridan MRT foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Olingan natijalarga ko'ra, Migren bilan kasallangan 18 nafar bemordan 5 nafar (faqat ayollar) bemorda (27.8%) qon tomir etiologiyali ensefalopatiya xulosasi berilgan. Bemorlarning o'rtacha yoshi  $28 \pm 0.23$  yoshni tashkil qiladi.

**Xulosa:** Tekshiruv xulosasiga ko'ra, Migren bilan kasallangan bemorlarda yoshidan qat'iy nazar ensefalopatiyaning uchrashi, migren funksional kasallik bo'lishiga qaramasdan organik o'zgarishlar bilan asoratlanishi mumkin. Ayollar orasida migren asoratlanishga moyil.